



SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Korxonalar va tashkilotlar (2019-yil 1-aprel holatiga)



Ro'yxatdan
o'tgan

17048
ta.

2019-yilning yanvar-mart oylarida viloyatda 1666 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 583 taga ko'pdir.

Faoliyat
ko'rsatayotgan

16675
ta.

Natijada, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 2114 ta (14,5 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 16675 tani tashkil etgan.

Yangi tashkil
etilganlar

1666
ta.

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(2019-yil 1-aprel holatiga)


17048 tani
tashkil etdi

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar
soni, birlikda



10,8 %


O'tgan yilning shu
davriga nisbatan
o'sish sur'ati



2019-yilning 1-aprel holatiga 17048 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 10,8 foizga o'sgan, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jamiga nisbatan 25,0 % savdo, 13,3 % sanoat, 11,3 % qurilish, 7,4 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 7,0 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 4,1 % tashish va saqlash, 1,8 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar, 1,2 % axborot va aloqa, hamda 28,9 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha (4259 ta) savdo, (2276 ta) sanoat, (1930 ta) qurilish, (1258 ta) qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, (1184 ta) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, (703 ta) tashish va saqlash, (298 ta) sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar, (208 ta) axborot va aloqa, hamda (4932 ta) boshqa faoliyat turlariga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **16675** tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 2114 ta (14,5 %) ga o'sgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi, %


(dehqon va fermer xo'jaliklaridan tashqari)




Savdo




Sanoat




Qurilish




Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi




Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar




Tashish va saqlash



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish




Axborot va aloqa



Boshqa turlar

Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Hududlar kesimida, qaralganda, faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlarga soni eng ko'pi Termiz shahri (3572 ta), Denov (1935 ta), Jarqo'rg'on (1243 ta), Termiz (1117 ta) va Sho'rchi (1098 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Oltinsoy (637 ta), Muzrabot (752 ta) hamda Boysun(818ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

Yangi tashkil etilgan

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yil yanvar-mart oylarida 1666 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2018-yilning shu davriga nisbatan 583 taga ko'pdir.

Yangi tashkil etilgan korxonalarning o'sish surati, birlikda



Yangi tashkil etilgan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'pi savdo(687ta), sanoat (345 ta),qurilish (189 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (127 ta)va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar(124 ta) sohalarida tashkil etilgan.

Eng kamida esa tashish va saqlash (38 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (18 ta) hamda axborot va aloqa (15 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Savdo



687

Tashish va saqlash



38

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



124

Qurilish



189

Sanoat



345

Axborot va aloqa



15

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish



18

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi



127


Boshqa turlar



123


Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi Termiz shahri (300 ta), Denov (257ta), Sho'rchi (139ta) va Termiz (131ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Sariosiyo (57 ta), Oltinsoy (57 ta), hamda Muzrabot (69 ta) tumanlarida korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar yillar kesimida



■ Korxonalar sonini o'sishi, birlikda

Tijorat korxonalari

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(2019-yil 1-aprel holatiga)

Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar va tashkilotlar soni 23565 tani tashkil qildi.

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda


Mas'uliyati cheklangan jamiyati




Xususiy korxonona




Oilaviy korxonona




Unitar korxonona




Aksiyadorlik jamiyati



Boshqalar



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar



229 ta


O'tgan yilning shu davriga nisbatan 322,5 % o'sgan.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalar soni.


Asosiy qismi Afg'oniston Islom Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Tojikiston Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi va Koreya Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.

2019-yil 1-aprel holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 229 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 158 taga yoki 322,5 % ga o'sgan. Ushbu korxonalarining asosiy qismi Afg'oniston Islom Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Tojikiston Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi va Koreya Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarni yillar kesimida soni, birlikda



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining 84 tasi qo'shma, 145 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.




Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni, birlikda




Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining asosiy qismi Termiz shahar (101 ta yoki jamidagi ulushi 44,1 %), Termiz (26 ta yoki 11,3 %), Uzun (15 ta yoki 6,5 %), hamda Denov tumanlarida (13 ta yoki 5,7%) hissalariga to'g'ri keladi.

Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Boysun (2 ta yoki 0,9%), Oltinsoy (3 ta yoki 1,3 %), Qumqo'rg'on (6 ta yoki 2,6 %) va Sherobod (7 ta yoki 3,1 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda



Ko'rinib turibdiki faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, sanoat, savdo va boshqa faoliyat turlarida to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulush esa axborot va aloqa hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar faoliyat turlariga to'g'ri keladi.




Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar



1 Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar


2019-yilning yanvar-mart oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarining soni 51tani tashkil etgan.

Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 39 taga ko'paygan.



Afg'oniston Islom Respublikasi rezidentlari kapitali ishtirokida 38 ta, Rossiya Federatsiyasi, Tojikiston Respublikasi va Hindiston Respublikasi rezidentlari ishtirokida - 3 tadan, Turkmaniston Respublikasi, Gretsiya, Qozog'iston va Gruziya Respublikalari - 1 tadan yangi korxonalar ro'yxatdan o'tgan.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (15 ta), savdo (15 ta), sanoat (11 ta), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda (5 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda (1 ta) va boshqa faoliyat turlari (4 ta) hissasiga to'g'ri keladi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(2019-yil 1-aprel holatiga)







2019-yil 1-aprel holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 13098 tani tashkil etgan. Bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 17,3 % ga oshgan.

2019-yil yanvar-mart oylarida 1617 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirilganda 658 taga ko'proqdir.




•Kichik tadbirkorlik
subyektlarining eng katta
ulushi

•Kichik tadbirkorlik
subyektlarining eng kichik
ulushi



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 13098 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 4198 tasi (32,0 %) – savdo, 2222 tasi (17,0 %) - sanoat, 1911 tasi (14,6 %) - qurilish, 1186 tasi (9,0 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1161 tasi (8,9 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 682 tasi (5,2 %) - tashish va saqlash, 233 tasi (1,8 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 197 tasi (1,5 %) - axborot va aloqa sohasi, shuningdek 1308 tasi (10,0 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi



Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi



Savdo

42,5%



Sanoat

21,3 %



Qurilish

11,7 %



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

7,7 %



Tashish va saqlash

2,4 %



Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi

7,8 %



Axborot va aloqa

0,9 %



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

1,1 %




Boshqa turlar

4,6 %



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'p savdoda (687ta), sanoatda (345ta), qurilishda (189ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (126ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (15 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (18 ta), hamda tashish va saqlashda (38 ta) tashkil etilgan.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni, birlikda



Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Termiz shahri (283 ta), Denov (252 ta), Sho'rchi (137 ta) va Termiz (129 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.


Eng kam Sariosiyo (53 ta), Oltinsoy (56 ta), hamda Muzrabot (66 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda

(1-aprel holatiga)




Ro'yxatdan o'tgan
Faoliyat ko'rsatayotgan
Yangi tashkil etilgan




Ro'yxatdan o'tgan
Faoliyat ko'rsatayotgan
Yangi tashkil etilgan

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni hududlar kesimida soni, birlikda

2019-yil 1-aprel holatiga



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 33,3 % yoki 291 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 25,2 % yoki 220 tasi sanoat, 23,4 % yoki 205 tasi savdo, 11,3 % yoki 99 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,3 % yoki 11 tasi qurilish, 1,1 % yoki 10 tasi tashish va saqlash, 0,7 % yoki 6 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 0,2% yoki 2 tasi axborot va aloqa hamda 3,5% yoki 31 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda

**Surxondaryo viloyati
statistika boshqarmasi
Statistik registrlarlarni yuritish
bo'limi
Tel.:71-230-85-90(91)**